

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIIY  
DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/03.06.2023.Yu.22.04 RAQAMLI ILMIIY  
KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI**

**BOBOKULOV SHOXNAZAR OCHILOVICH**

**YERDAN FOYDALANISH VA MUHOFAZA QILISHNI HUQUQIY  
TARTIBGA SOLISH MUAMMOLARI**

12.00.06 – Tabiiy resurslar huquqi. Agrar huquq. Ekologik huquq

**yuridik fanlar doktori (DSc) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Doktorlik (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Content of the doctoral (DSc) dissertation abstract**

**Оглавление автореферата докторской (DSc) диссертации**

**Bobokulov Shoxnazar Ochilovich**

Yerdan foydalanish va muhofaza qilishni huquqiy tartibga solish muammolari.....3

**Bobokulov Shokhnazar Ochilovich**

The legal issues of regulation of the land use and protection .....30

**Бобокулов Шохназар Очилович**

Проблемы правового регулирования использования и охраны земель.....53

**E’lon qilingan ishlar**

List of published works

Список опубликованных работ ..... 58

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY  
DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/03.06.2023.Yu.22.04 RAQAMLI ILMIY  
KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI**

**BOBOKULOV SHOXNAZAR OCHILOVICH**

**YERDAN FOYDALANISH VA MUHOFAZA QILISHNI HUQUQIY  
TARTIBGA SOLISH MUAMMOLARI**

12.00.06 – Tabiiy resurslar huquqi. Agrar huquq. Ekologik huquq

**yuridik fanlar doktori (DSc) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Fan doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B 2024.1.DSc/Yu290. raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya ishi O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (<https://tsul.uz/uz/fan/avtoreferatlar>) va “ZiyoNET” Axborot ta’lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy maslahatchi:**

**Usmonov Muxammadi Baxritdinovich**  
yuridik fanlar doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Jurayev Yuldash Achilovich**  
yuridik fanlar doktori, professor

**Safarov Djaxongir Ismoilovich**  
yuridik fanlar doktori, dotsent

**Uzakova Guzal Sharipovna**  
yuridik fanlar doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi akademiyasi

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi DSc.07/03.06.2023.Yu.22.04 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 12-aprel kuni soat 10.00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Sayilgoh ko‘chasi, 35-uy. Tel.: (99871) 233-66-36 faks: (99871) 233-37-48, e-mail: [info@tsul.uz](mailto:info@tsul.uz)).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat yuridik universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1147-raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Amir Temur ko‘chasi, 13. Tel.: (99871) 233-66-36).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 28-mart kuni tarqatildi.

(2025-yil 28-martdagi -raqamli reestr bayonnomasi).

**S.S.Gulyamov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,  
yuridik fanlar doktori, professor

**Sh.N.Raxmonov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
kotibi, yuridik fanlar nomzodi, dotsent

**D.N.Maxkamov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar  
doktori (DSc), professor

## **KIRISH (Doktorlik (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyoda yer nihoyatda noyob tabiiy resurs bo'lib, ekologik, ijtimoiy, iqtisodiy, demografik vaziyat, ta'bir joiz bo'lsa, siyosiy barqarorlik ham ko'p jihatdan uning holatiga, undan oqilona va samarali foydalanish darajasiga bevosita bog'liq. Bugungi kunda salbiy antropogen omillar ta'siri hamda tabiiy resurslardan oqilona foydalanmaslik oqibatida degradatsiyaga uchragan sug'oriladigan yer maydonlari miqdori ko'paymoqda. Dunyoda qishloq xo'jaligi yerlarining 2 milliard gektari (14,9%) yaroqsiz ahvolga kelib qolgan<sup>1</sup>. Shuningdek, BMTning ma'lumotlariga ko'ra, yiliga qariyb 6 million gektar yer cho'llanishga uchramoqda, haydaladigan yerlarning 40 foizidan ortig'i muomaladan chiqib, qishloq xo'jaligi uchun mutloq yaroqsiz holatga kelgan<sup>2</sup>. Bu holat oziq-ovqat yetishtirishni xavf ostiga qo'yadi, biologik xilma-xillikka tahdid soladi va iqlim inqirozini yanada kuchaytiradi. Shu nuqtai nazardan yerdan foydalanish va muhofaza qilishga oid qonunchilikni rivojlantirish va ushbu sohada vujudga keladigan ijtimoiy munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solish eng muhim muammolardan hisoblanadi.

Jahonning yetakchi ilmiy tadqiqot markazlari, muassasalari tomonidan yerdan foydalanish va muhofaza qilish borasida ko'plab ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan. Dunyoda yerdan foydalanish, iqlim o'zgarishi va biologik xilma-xillik hamda ekologik muammolarni hal qilish uchun innovatsion texnologiyalar va strategiyalarni ishlab chiqish masalalari tobora dolzarb bo'lib bormoqda. Ushbu muammolarning hal qilinishi yerdan foydalanish va muhofaza qilishda raqamlashtirish masalalari, yerdan foydalanish huquqi kafolatlarining ta'minlanishi, ekologik jinoyatlar uchun yuridik va jismoniy shaxslarning javobgarligi, ijtimoiy faoliyatga maqsadli ta'sir ko'rsatish orqali barqaror rivojlanishga erishishning huquqiy shart-sharoitlari, iqtisodiy rivojlanish sharoitida barqaror rivojlanishning huquqiy asoslari, biologik xilma-xillikni muhofaza qilishning qonunchilik asoslari hamda yer munosabatlari sohasida qonun hujjatlarini tizimlashtirish hamda yer (tuproq)ga salbiy ta'sir ko'rsatishning oldini olish va ta'qiqlashning tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlarini takomillashtirishni talab etadi. Binobarin, jahonda yerdan foydalanish va muhofaza qilish sohasidagi qonun hujjatlari samaradorligini oshirish, bu boradagi huquqiy hujjatlar tizimini barqarorlashtirish va ularni yagona majmuaga keltirish, ijrosini ta'minlash muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Bu esa, o'z navbatida, yerga oid munosabatlarni tartibga soluvchi qonunlarni yangi normalar bilan to'ldirish va ularning ta'sirini yanada kuchaytirish bo'yicha ilmiy xulosa, amaliy takliflar ishlab chiqish zaruratini tug'dirmoqda.

Yangi O'zbekistonda yerdan foydalanish va muhofaza qilish hamda iqlim o'zgarishi masalalariga alohida e'tibor berilmoqda. Bu borada O'zbekistonning ham BMT, YuNESKO, FAO kabi xalqaro tashkilotlar hujjatlariga mos ravishda yer resurslarini muhofaza qilish, va ulardan oqilona foydalanish, yer mulkdorlari,

---

<sup>1</sup> Центр экономических исследований Узбекистана, [www.cer.uz](http://www.cer.uz)

<sup>2</sup> "Iqlim o'zgarishi sharoitida yer resurslarini barqaror boshqarish" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy seminar maqolalar to'plami// Toshkent – 2017 yil, 21 aprel. 2-3 b.

egalari, yerdan foydalanuvchilarning huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish chora-tadbirlari tizimini yaratish va bu sohada qonun ustuvorligiga erishish maqsadida ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy hamda ekologik ahamiyatga molik islohotlar amalga oshirilgan. Zero, davlatning iqtisodiy salohiyati, jamiyatning moddiy negizi va fuqarolarning farovonligi ko'p jihatdan tabiatning bebaho boyligi hisoblangan yerga nisbatan qonuniylikni ta'minlash, yerdan qonun talablari asosida foydalanish, yer qonunchiligini buzilishiga yo'l qo'ymaslik, yer munosabatlari sohasida huquq-tartibotni ta'minlash kabi vazifalarni hal qilishga bog'liq bo'ladi<sup>1</sup>. Mamlakatimizda iqtisodiy islohotlar amalga oshirilayotgan paytda yer resurslarini huquqiy muhofaza qilish va undan oqilona foydalanishni ta'minlash mexanizmini yanada takomillashtirishga alohida e'tibor berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" to'g'risida", 2021-yil 8-iyundagi "Yer munosabatlarida tenglik va shaffoflikni ta'minlash, yerga bo'lgan huquqlarni ishonchli himoya qilish va ularni bozor aktiviga aylantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2024-yil 18-iyundagi "Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkalarini ijaraga berish tartibini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 24-noyabrdagi "Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkalarini ijaraga berish tartibiga doir normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida" 709-son, 2022-yil 14-fevraldagi "Qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkalarini xususiyashtirish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida 71-son qarorlari hamda mavzuga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga mos keladi.

**Dissertatsiyaning mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi<sup>2</sup>.** Yerdan foydalanish va ularni muhofaza qilish sohasida huquqiy tadqiqotlar rivojlangan mamlakatlarning oliy ta'lim muassasalari va ilmiy markazlarida, jumladan Cambridge University, Manchester University, Oxford University, Centre for Environmental Policy Imperial College London (Buyuk Britaniya), The

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo'lini qat'iy davom ettiramiz" mavzusidagi nutqi //Xalq so'zi, 2021 yil 7 noyabr.

<sup>2</sup> Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi: //www.ox.ac.uk; https://www.cam.ac.uk; http://www.manchester.ac.uk; http://www.hu-berlin.de; www.hs-mittweida.de; http://www.sorbonne-university.com; http://www.kyoto-u.ac.jp/en; https://www.useoul.edu; http://web.mit.edu; https://www.ecology.uga.edu; https://www.indiana.edu; http://www.sggw.pl; http://www.uu.se; https://www.uu.nl/en; www.rug.nl; http://www.wfndia.org; http://www.mq.edu.au; https://www.era.int; https://www.ut.ee; https://www.k6k.ee; https://www.msu.ru; www.iseu.bsu.by.

University of Applied Sciences Mittweida, Humboldt Universitat (Germaniya), The University of Sorbonne (Fransiya), National University of Seoul (Janubiy Koreya), Kyoto University (Yaponiya), Indiana University, Yale Center for Environmental Law and Policy, IUCN Academy of Environmental Law, Odum School of Ecology University of Georgia, Massachusetts Institute of Technology, (AQSh), Warsaw University of Life Sciences (Polsha), Stockholm Environmental Law and Policy Centre, Centre for Environmental Law Macquarie University (Avstraliya), The Centre for Environmental Law (Hindiston), Tartu Ülikool, Estonian Environmental Law Centre (Estoniya), Moskva davlat universiteti (Rossiya) olib borilmoqda.

Jahonda yerdan foydalanish va ularni muhofaza qilish sohasida amalga oshirilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi ilmiy natijalarga erishilgan: ekologik jinoyatlar uchun yuridik va jismoniy shaxslarning javobgarlik masalalari sohaning yetuk olimlari tomonidan (IUCN Academy of Environmental Law, AQSh) tadqiq qilingan. Shuningdek, ijtimoiy faoliyatga maqsadli ta'sir ko'rsatish orqali barqaror rivojlanishga erishishning huquqiy shart-sharoitlari, yer resurslaridan foydalanish va muhofaza qilishga oid qonun hujjatlari Kyoto Universityeti (Yaponiya) o'rganilgan. Iqtisodiy rivojlanish sharoitida barqaror rivojlanishning huquqiy asoslari The National Centre for Environmental Education (Ispaniya) ishlab chiqilgan. Biologik xilma-xillikni muhofaza qilishning qonunchilik asoslari National University of Seoul, (Janubiy Koreya) hamda yer munosabatlari sohasida qonun hujjatlarini tizimlashtirish masalalari Tartu Ülikool, (Estoniya) ishlab chiqilgan. Shuningdek, GFR, Avstriya, Daniya, Ispaniya, AQSh, XXR, shuningdek, Rossiya Federatsiyasi, Qirg'iziston Respublikasi, Tojikiston, Qozog'iston, Ozarboyjon, Gruziya, Estoniya kabi davlatlarning yerlarni jinoyat-huquqiy muhofaza qilishga oid qonunchiligini o'rganish, ushbu davlatlar milliy qonunchiligida yer (tuproq)ga salbiy ta'sir ko'rsatishning oldini olish va ta'qiqlashning turli huquqiy mexanizmlariga bag'ishlangan takliflar ishlab chiqilgan.

Hozir dunyoning rivojlangan davlatlarida ustuvor masalalardan biri sifatida yer resurslarini muhofaza qilish, yerlardan oqilona foydalanish sohasida qonunchilikni rivojlantirish istiqbollari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, ushbu tadqiqotlarda yer resurslarini boshqarish, yerga yetkazilgan zararning oldini olish, bartaraf etish va qoplashga oid ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solish, yerdan foydalanish va muhofaza qilishga oid qonunchilikni takomillashtirishga doir tadqiqotlar olib borilmoqda.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Mamlakatimizda mustaqillik yillarida yerdan foydalanish va muhofaza qilishning turli jihatlariga bag'ishlangan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan.

Xususan, mamlakatimizda yer huquqi **nuqtai nazaridan yerdan foydalanish va muhofaza qilishning ayrim masalalari huquqshunos olimlardan** I.J.Jalilov, U.B.Bozorov, M.B.Usmonov, Yu.A.Juraev, J.T.Xolmo'minov, Sh.X.Fayziev, Dj.I.Safarov, S.S.Hamroev, N.K.Skripnikov, G.G.Fayzullaeva, G.Sh.Uzakova, M.M.Nurmatov, N.Sh.Rajabov, O.X. Narzullaev, A.Abdullaev, U.T.Ayubov, R.H.Kenjaev, D.M.Umarov, Sh.R.Qobilov, M.J.Maxmadaminov va

O.B.Tursunovlarning ilmiy ishlarida o‘z aksini topgan<sup>1</sup>.

Yerdan foydalanishning fuqarolik-huquqiy va xo‘jalik-huquqiy masalalari, xususan, yerdan foydalanishning shartnomaviy tartibi, yerga nisbatan mulk huquqi, yer qonunchiligini buzganlik uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlikni qo‘llash asoslari, xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning yerdan foydalanishi masalalari mamlakatimizda sivilist olimlardan H.R.Rahmonqulov, I.B.Zokirov, R.J.Ruziev, O.Okyulov, K.Q.Rashidov, B.B.Samarxo‘jaev, Sh.N.Ruzinazarov, F.Y.Shodmonov, D.M.Karaxodjaeva, K.Sindarov, M.X.Baratov, V.Ergashev, I.M.Mamarayimov, N.Axmonov va K.Kuchkinovlarning ilmiy izlanishlarida o‘z aksini topgan<sup>2</sup>.

Yerni muhofaza qilishning jinoyat, ma‘muriy va nazariy-huquqiy asoslari esa huquqshunos olimlardan M.Rustambayev, M.A.Rajabova, F.Tohirov, M.Qodirov, A.Yakubov, R.Kabulov, H.Isloxodjaev, X.Odilqoriev, M.Najimov, A.Li, E.Hojiev, F.Raximov va F.Samig‘jonovlar tomonidan soha qonunchiligi asosida o‘rganilgan<sup>3</sup>.

Yerdan foydalanish va muhofaza qilishni huquqiy tartibga solish masalalari MDH davlatlarida huquqshunos olimlardan O.S.Kolbasov, N.I.Krasnov, I.A.Ikoniskaya, M.M.Brinchuk, A.E.Erenov, Y.G.Jarikov, A.A.Zabelishenskiy, B.V.Erofeev, O.I.Krassov, G.S.Bashmakov, A.S.Stamkulov, O.V.Nazimkina, N.V.Karlova, P.A.Dedova, N.A.Sirodov, L.B.Sheynin, F.X.Adixanov, Y.N.Kolotinskaya va D.B.Goroxovlar tomonidan o‘rganilgan<sup>4</sup>.

N.Dikkinson, J.A.Omotola, R.Grov-Vayt, E.Vikkeri, A.Kalxan, Y.Fang, G.Vinter, K.Duner, L.Kremer, J.Nasset, N.A.Robinson, G.V.Rengeling, R.Steinberg, D.Xuges, I.O.Krasnova va boshqa olimlar tomonidan yaratilgan ilmiy ishlarda Yevropa Ittifoqi, AQSh, GFR, Fransiya singari mamlakatlarning ekologik, shu jumladan yer qonunchiligi bo‘yicha tajribasi tahlil qilingan<sup>5</sup>.

Ekologik qonunchilik, uni takomillashtirish va kodifikatsiyalash istiqbollarning ba‘zi masalalari B.B.Alixanov, Yu.Sh.Shodimetov, A.N.Nigmatov, G.Abdullaeva va N.F.Reymers singari ekolog olimlarning izlanishlarida ham o‘rganilgan<sup>6</sup>.

Biroq, ushbu huquqshunos olimlarning ishlarida yerdan foydalanish va muhofaza qilishni huquqiy tartibga solish muammolari O‘zbekiston Respublikasining milliy qonunchiligi asosida, yer huquqi nuqtai nazaridan hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni hisobga olgan holda kompleks jihatdan to‘liq tadqiq etilmagan bo‘lib, bu ushbu tadqiqot ishi mavzusining dolzarbligi va yangiligidan dalolat beradi.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi universitetining 2022-2027 yillarda ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirishning istiqbolli rejasining xususiy

<sup>1</sup> Izoh: Ushbu olimlarning asarlari foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatida keltirilgan.

<sup>2</sup> Izoh: Ushbu olimlarning asarlari foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatida keltirilgan.

<sup>3</sup> Izoh: Ushbu olimlarning asarlari foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatida keltirilgan.

<sup>4</sup> Izoh: Ushbu olimlarning asarlari foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatida keltirilgan.

<sup>5</sup> Izoh: Ushbu olimlarning asarlari foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatida keltirilgan.

<sup>6</sup> Izoh: Ushbu olimlarning asarlari foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatida keltirilgan.

huquqiy fanlar va qonunchilik rivojining moddiy-protsessual asoslarini takomillashtirish loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** O‘zbekiston Respublikasining yer qonunchiligi hujjatlarini takomillashtirish bilan bog‘liq huquqiy munosabatlarni kompleks tahlil qilish, nazariy va amaliy jihatlarini o‘rganish asosida aniqlangan muammolarning yechimini topish, ushbu sohada qonun hujjatlari tegishli normalarini takomillashtirish va uni qo‘llash amaliyoti samaradorligini oshirish yo‘llarini topishdan iborat.

**Tadqiqot vazifalari:**

mustaqillik yillarida yerdan foydalanish va muhofaza qilishga oid qonunchilikning rivojlanishi tarixini tahlil qilish hamda yerdan foydalanish va muhofaza qilishni huquqiy tartibga solishda vakolatli davlat organlari faoliyatining ilmiy-huquqiy mohiyatini ochib berish;

yerdan foydalanish huquqi tushunchasini ilmiy-nazariy jihatdan asoslash va ochib berish shuningdek, yerdan foydalanish huquqini tasniflash mezonlarini tahlil qilish asosida turlarga ajratish;

yerdan foydalanishning shartnomaviy-huquqiy tartibini o‘rganish va uni takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish hamda yerdan foydalanish huquqining vujudga kelishi tartibini o‘rganish;

yerdan foydalanish huquqining vujudga kelishida yuridik faktlarning ahamiyatini ochib berish hamda yerga bo‘lgan huquqlarning vujudga kelish asosi sifatida yerga bo‘lgan huquqni davlat ro‘yxatiga olish masalalarini tahlil etish;

yerdan foydalanish huquqini cheklash, to‘xtatish va bekor bo‘lish asoslarini tadqiq qilish shuningdek, yerga bo‘lgan huquqni bekor bo‘lish asosi sifatida jamoat ehtiyojlari uchun yer uchastkasini kompensatsiya evaziga olib qo‘yish, qayta sotib olish masalalarini o‘rganish;

yerlarni muhofaza qilishga oid chora-tadbirlarning yuridik mohiyatini ochib berish hamda yerlarni muhofaza qilish asosi sifatida yerdan foydalanish huquqi kafolatlari va ularning ta‘minlanishi masalalarini tadqiq etish;

xorijiy mamlakatlarning yerdan foydalanish va muhofaza qilishni huquqiy tartibga solish bilan bog‘liq yer qonunchiligi normalarini qiyosiy-huquqiy tahlil qilish hamda yerdan foydalanish va muhofaza qilishni huquqiy tartibga solishga oid qonunchilik asoslarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar va takliflar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning ob‘ektini** yer qonunchiligi hujjatlarini takomillashtirish bilan bog‘liq huquqiy munosabatlar tashkil etadi.

**Tadqiqotning predmetini** O‘zbekiston Respublikasi va xorijiy mamlakatlarning yer qonunchiligi hujjatlari, ularni kodifikatsiyalash bilan bog‘liq xorijiy davlatlar tajribasi, mavzuga oid ilmiy adabiyotlar hamda ushbu sohada qonun hujjatlarini qo‘llash amaliyoti tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiya tadqiqoti jarayonida kuzatish, tahlil qilish, umumlashtirish, mantiqiylik, tizimlilik, statistik, monografik, tarixiy, qiyosiy-huquqiy kabi tadqiqot usullardan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

ijaraga berilgan yer uchastkasini yoki uning bir qismini ikkilamchi ijaraga berishning qonuniy tartibini belgilash hamda qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer uchastkasini ikkilamchi ijaraga berish shartlari, muddatlari, ikkilamchi ijaraga berganlik uchun haq undirish tartibi va miqdorlarini belgilash hamda ikkilamchi ijaraga berish shartnomasini davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishi zarurligi asoslantirilgan;

yer uchastkalarini kompensatsiya evaziga jamoat ehtiyojlari uchun olib qo‘yishga asos bo‘ladigan maqsadlar hamda yer uchastkalarini xususiylashtirish sub‘ektlari tomonidan o‘ziga doimiy foydalanish (egalik qilish), ijara yoxud meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqi asosida tegishli bo‘lgan yer uchastkalarini sotib olish kabi shakllari ilmiy asoslantirilgan;

yer uchastkasi qurilish ishlarini amalga oshirish huquqi bilan realizatsiya qilinganda bino, imorat, inshootlarni qurish jarayonida yer uchastkasini saqlash vazifasini bajarish majburiyati yer uchastkasi egasi, foydalanuvchisi va mulkdoriga yuklanishi, qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalari toifasiga va foydalanish maqsadiga ko‘ra xususiylashtirilishi asoslab berilgan;

jamoat ehtiyojlari uchun o‘zganing yer uchastkasidan cheklangan tarzda foydalanish huquqi (omnaviy servitut) belgilanishi zarurati mavjudligi, servitut uchun haq to‘lash, servitut belgilangan yer uchastkasi uchun yer solig‘i (ijara haqi) summasini, shuningdek servitutdan foydalanish jarayonida yer egalari, yerdan foydalanuvchilar, yer uchastkalarining ijarachilari va mulkdorlariga yetkazilgan zararni (boy berilgan foydani) kompensatsiya qilish maqsadida belgilanishi asoslab berilgan;

chet el yuridik va jismoniy shaxslarining mulki bo‘lgan yer uchastkasini savdo va xizmat ko‘rsatish sohasi ob‘ekti yoxud turar joy hamda boshqa bino bilan birga yoki binoning bir qismi bilan birga jamoat ehtiyojlari uchun qayta sotib olish, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan kafolatlar ta‘minlangan holda xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlarining qaroriga yoxud O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga ko‘ra amalga oshirilishi muhimligi asoslantirilgan;

tuproq yerning unumdor qatlami va umuman qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetkazib beruvchi asosiy organik moddalarni saqlovchisi ekanligini hisobga olgan holda tuproq unumdorligini ta‘minlash sohasidagi faoliyatni moliyalashtirish, tuproq unumdorligini ta‘minlash ustidan nazorat, tuproq unumdor qatlamini sidirib olish va saqlash hamda tuproq unumdorligini me‘yorlash kabi masalalarni tartibga solish zarurligi ilmiy-huquqiy jihatdan asoslantirilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat: O‘zbekiston Respublikasining Yer, Fuqarolik kodeksi, “Fermer xo‘jaligi to‘g‘risida”, “Dehqon xo‘jaligi to‘g‘risida”, “Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalarini xususiylashtirish to‘g‘risida”, “Yer uchastkalarini kompensatsiya evaziga jamoat ehtiyojlari uchun olib qo‘yish tartib-taomillari to‘g‘risida”, “Tuproqni muhofaza qilish va uning unumdorligini oshirish to‘g‘risida”gi qonunlarini takomillashtirish bo‘yicha bildirilgan takliflar yer resurslarini boshqarish, yerlardan foydalanish huquqi kafolatlarini ta‘minlash, xususiylashtirish, yer uchastkalarini berish tartibini

takomillashtirish, shuningdek, yerlarni muhofaza qilishga oid qonunchilikni takomillashtirishga xizmat qilgan;

bugungi kunda dolzarb muammolardan biri – bu o‘zboshimchalik bilan yer uchastkalarining egallanishi, ularda noqonuniy qurilishlarning amalga oshirilishidir. Bunday huquqbuzarliklarning sodir etilishi davlatning yerga bo‘lgan mulk huquqi buzilishiga olib keladi hamda fuqarolar va yuridik shaxslarning yerga bo‘lgan qonuniy huquqlarini amalga oshirishga to‘sqinlik qiladi. O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi va prokuratura organlarining o‘zboshimchalik bilan qurilgan imoratlarni aniqlash hamda ularni bartaraf etishda ishtirok etishi bunday huquqbuzarliklarning oldini olish, ularni bartaraf etish samaradorligining oshishiga xizmat qilgan;

jismoniy va yuridik shaxslarga tegishincha meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish, doimiy egalik qilish, doimiy foydalanish, muddatli (vaqtincha) foydalanish yoki ijara huquqi asosida tegishli bo‘lgan yer uchastkalarini jamoat ehtiyojlari uchun olib qo‘yish faqat qonunda nazarda tutilgan kompensatsiya to‘la hajmda berilganidan keyin amalga oshirilishi asoslantirilgan;

dunyoda yer uchastkalarining 3D modellarini ishlab chiqish orqali yer egalari, mulkdorlari va ijarachilarining huquq va majburiyatlarini qayd etish afzalliklari e’tirof etilmoqda. O‘zbekiston Respublikasida ham ushbu yo‘nalishda muayyan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bunday loyihalarni amalga oshirishning ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish jarayonini tezlashtirishi, yer uchastkalari chegaralarini belgilashda yo‘l qo‘yiladigan xatolar sonini kamaytirishi hamda yer munosabatlari sohasidagi davlat organlari faoliyatining umumiy shaffofligi va samaradorligini oshirish imkonini berishi asoslantirilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalari milliy qonunchilik normalari, huquqni qo‘llash amaliyoti materiallari, xalqaro va xorijiy mamlakatlarning qonunchiligi normalarining tahlil qilinganligi, rasmiy manbalar hamda ilmiy adabiyotlarga asoslanganligi, olingan xulosalar hamda takliflarning joriy yetilganligi tegishli davlat organlari tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati qonun ijodkorligida, huquqni qo‘llash amaliyotida, yerdan foydalanish va muhofaza qilish sohasidagi qonun hujjatlarini takomillashtirish hamda ularning ilmiy-nazariy tahlili asosida olingan natijalar ushbu yo‘nalishdagi metodologik yondashuvlarni takomillashtirishda foydalanilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati yerdan foydalanish va muhofaza qilish sohasidagi qonun hujjatlarini takomillashtirishda hamda huquqni qo‘llash amaliyotini rivojlantirishda, yerdan foydalanish va muhofaza qilish sohasidagi qonun hujjatlarini inventarizatsiyadan o‘tkazishda, shuningdek, yer resurslarini boshqarish bo‘yicha tegishli vakolatga ega idoralar va jamoatchilik asosidagi tuzilmalarning yerdan foydalanish va muhofaza qilish sohasidagi faoliyatini takomillashtirishga bag‘ishlangan qonun hujjatlarini ishlab chiqishga xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Yerdan foydalanish va muhofaza qilishni huquqiy tartibga solish muammolari mavzusidagi dissertatsiya ishi bo'yicha olingan ilmiy natijalardan quyidagilarda foydalanilgan:

ijaraga berilgan yer uchastkasini yoki uning bir qismini ikkilamchi ijaraga berishning qonuniy tartibini belgilash hamda qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkasini ikkilamchi ijaraga berish shartlari, muddatlari, ikkilamchi ijaraga berganlik uchun haq undirish tartibi va miqdorlarini belgilash hamda ikkilamchi ijaraga berish shartnomasini davlat ro'yxatidan o'tkazilishi haqidagi takliflardan O'zbekiston Respublikasining yer kodeksiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 23-oktyabrdagi O'RQ-871-sonli qonunining 5-moddasi 5-bandini hamda 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli qonunini 88-moddasi 16-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan hamda O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 24-moddasi yettinchi va 24<sup>2</sup>-moddasi beshinchi va oltinchi qismlarida o'z ifodasini topgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari instituti 2024-yil 28-martdagi 01/q-08-39-son dalolatnomasi). Ushbu takliflarning amalga oshirilishi yerdan noqonuniy foydalanishning oldini olishga va yerdan foydalanish samaradorligini oshirishga xizmat qilgan;

yer uchastkalarini kompensatsiya evaziga jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yishga asos bo'ladigan maqsadlar haqidagi taklif O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 29-iyunda O'RQ-781-son "Yer uchastkalarini kompensatsiya evaziga jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yish tartib-taomillari to'g'risida" qonunining 4-moddasida hamda yer uchastkalarini xususiylashtirish shakllari haqidagi taklif O'zbekiston Respublikasining «Qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkalarini xususiylashtirish to'g'risida»gi Qonunining 14-moddasida o'z ifodasini topgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari instituti 2024-yil 28-martdagi 01/q-08-39-son dalolatnomasi). Ushbu taklif yer uchastkalarini jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yishga asos bo'ladigan maqsadlarni hamda qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkalarini xususiylashtirish shakllarini aniq belgilashga xizmat qilgan;

yer uchastkalaridan imorat qurish uchun foydalanish haqidagi taklifdan O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli qonunini 88-moddasi 18-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan hamda O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 26-moddasida o'z ifodasini topgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari instituti 2024-yil 28-martdagi 01/q-08-39-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning amalga oshirilishi yer qonunchiligini takomillashtirishga xizmat qilgan;

o'zganing yer uchastkasidan cheklangan tarzda foydalanish huquqi (servitut) haqidagi va jamoat ehtiyojlari uchun o'zganing yer uchastkasidan cheklangan tarzda foydalanish huquqi (ommaviy servitut) belgilanishi haqidagi hamda servitut uchun haq to'lash to'g'risidagi takliflardan O'zbekiston Respublikasining yer kodeksiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 23-oktyabrdagi O'RQ-871-sonli qonunining 5-moddasi 11- va 12-bandlarini ishlab chiqishda foydalanilgan hamda

O‘zbekiston Respublikasi yer kodeksining 30-, 30<sup>5</sup>- va 30<sup>6</sup>-moddalarida o‘z ifodasini topgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2024-yil 28-martdagi 01/q-08-39-son dalolatnomasi). Ushbu taklif jamoat ehtiyojlari uchun o‘zganing yer uchastkasidan cheklangan tarzda foydalanish huquqi (ommaviy servitut) belgilanishiga xizmat qilgan;

yer uchastkasini jamoat ehtiyojlari uchun qayta sotib olish haqidagi taklifdan O‘zbekiston Respublikasining Yer kodeksiga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 29-iyundagi O‘RQ-782-sonli qonunining 5-moddasi 8-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan hamda O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 37<sup>1</sup>-moddasida o‘z ifodasini topgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari instituti 2024-yil 28-martdagi 01/q-08-39-son dalolatnomasi). Xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari yoxud Vazirlar Mahkamasiga ushbu vakolatning berilishi yer mulkdorlarining huquqlari kafolatlarini ta’minlashga xizmat qilgan;

tuproq unumdorligini ta’minlash sohasidagi faoliyatni moliyalashtirish, tuproq unumdorligini ta’minlash ustidan nazorat va tuproq unumdor qatlamini sidirib olish va saqlash hamda tuproq unumdorligini me’yorlash haqidagi takliflardan O‘zbekiston Respublikasi “Tuproqni muhofaza qilish va uning unumdorligini oshirish to‘g‘risida” qonunining 8-, 15-, 18- va 19-moddalarini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari instituti 2024-yil 23-dekabrda 3/08-262-son dalolatnomasi). Ushbu takliflar tuproq unumdorligini ta’minlash sohasidagi faoliyatni moliyalashtirish, tuproq unumdor qatlamini sidirib olish va saqlash hamda tuproq unumdorligini me’yorlash va davlat nazoratini tizimli ravishda amalga oshirilishini ta’minlashga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 8 ta ilmiy-amaliy anjumanda, jumladan 4 ta xalqaro, 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi.**

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 30 ta ilmiy ish, jumladan, 1 ta monografiya, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 21 ta (17 ta respublika va 4 ta xorijiy jurnallarda) maqola chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, besh bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiya ishining hajmi 229 betdan iborat.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, dissertatsiyaning mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, tadqiqotning dissertatsiya

bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, usullari, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarning ishonchliligi, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi, tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi ko'rsatib berilgan.

Dissertatsiya ishining birinchi bobi "Yerdan foydalanish va muhofaza qilishni huquqiy tartibga solishning umumiy tavsifi" deb nomlanib, unda mustaqillik yillarida yerdan foydalanish va muhofaza qilishga oid qonunchilikning rivojlanishi aloqadorligining o'ziga xos xususiyatlari hamda yerdan foydalanish va muhofaza qilishni huquqiy tartibga solishda vakolatli davlat organlari faoliyati o'ziga xos jihatlari ochib berilgan.

Ta'kidlash lozimki, yer qonunchiligi hujjatlari taraqqiyoti o'ziga xos uzoq tarixiy shakllanish va rivojlanish davrlarini bosib o'tgan. Xususan, mustaqillikka erishganimizdan so'ng mamlakatimizda yer qonunchiligining rivojlanishiga turtki bo'lgan, bunday zaruriyatni keltirib chiqargan eng asosiy obyektiv omillar sifatida uchta muhim omil ko'rsatib o'tildi: birinchidan, mamlakatda rejali iqtisodiyotga asoslangan ma'muriy-buyruqbozlik tizimidan raqobatga asoslangan erkin bozor munosabatlarini e'tirof etuvchi bozor iqtisodiyotiga o'tilganligi va shunga asosan iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarning ro'y berganligi, shu jumladan, mulk shakllarining kengayganligi va yer mulkchiligining va undan foydalanish huquqi turlarining o'zgarganligi; ikkinchidan, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar rivojlanishi sari, mamlakatimizda qishloq xo'jaligida yerdan foydalanuvchi asosiy subyekt sifatida fermer xo'jaliklarining huquqiy maqomini belgilash va ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga qaratilgan keng qamrovli agrar islohotlarning olib borilganligi; uchinchidan, amalda bo'lgan yer qonunchiligining izchil va to'xtovsiz rivojlanib borayotgan bozor iqtisodiyoti talablariga javob bera olmay qolganligi, shuningdek, yer-huquqiy islohotlar, yer sohasidagi davlat boshqaruvining o'zgarishi munosabati bilan sohada olib borilayotgan islohotlarni huquqiy ta'minlash zaruriyatining tug'ilganligi.

Mustaqillik yillarida yer qonunchiligining rivojlanishini shartli ravishda quyidagicha davrlashtirish taklif etildi: Birinchi bosqich, mustaqillikning ilk yillari va o'tish davrida yer munosabatlarini tartibga solishga qaratilgan qonunchilik asoslarining shakllanishi hamda mustaqil O'zbekistonda yer berish, yer ajratish bilan bog'liq masalalarni tartibga solishning huquqiy asoslari belgilab berilishi bilan tavsiflanadi hamda 1991-1998-yillarni qamrab oladi. Ikkinchi bosqich, bozor munosabatlariga o'tish sharoitida yer munosabatlarini tartibga solishning barqaror asoslarining shakllanishi, yer qonunchiligining kodifikatsiyalashuvi amalga oshirilishi, yer sohasida davlat boshqaruvining takomillashuvi, yer sohasidagi kadastr va monitoring institutlarining huquqiy asoslari ishlab chiqilganligi bilan tavsiflanadi (1998-2006-yillar). Uchinchi bosqich, yerdan foydalanishning asosiy tashkiliy-huquqiy shakli sifatida fermer xo'jaliklari faoliyatiga taalluqli, xususan, fermer xo'jaliklari faoliyati samaradorligini oshirish bilan bog'liq normativ-huquqiy hujjatlar majmui qabul qilinganligi kabi xususiyatlar bilan tavsiflanadi (2006-2017-yillar). To'rtinchi bosqich: Yangi O'zbekiston bosqichi, bozor

munosabatlariga o'tilishi tufayli yerlarni fuqarolik muomalasiga jalb etishga yo'naltirilgan, yer sohasida ipoteka va bozor munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan qonunchilik hujjatlari qabul qilinganligi kabi xususiyatlar bilan tavsiflanadi (2017-yildan hozirgi vaqtga qadar bo'lgan davr).

Yer munosabatlaridagi qonun hujjatlari normalarini takomillashtirish istiqbollarga oid bir necha ustuvor yo'nalishlar ajratib ko'rsatildi hamda ular bo'yicha amaldagi yer qonunchiligini takomillashtirishga oid takliflar ishlab chiqildi.

Yer sohasida davlat boshqaruviga quyidagicha mualliflik ta'rifi berildi: yer sohasida davlat boshqaruvi deganda, kompleks tashkiliy, huquqiy va iqtisodiy choralarni amalga oshirish yo'li bilan yerlardan oqilona va samarali foydalanishga, uni muhofaza qilish, qayta tiklash va tuproq qatlamining unumdorligini oshirish, insonlar uchun qulay va sog'lom bo'lgan tabiiy muhitni yaratish va saqlab qolishga, yerga egalik qilish va foydalanishga yo'naltirilgan choralar tizimi tushuniladi.

Yer sohasida davlat boshqaruvining umumiy, maxsus, tarmoq va ichki xo'jalik boshqaruvi kabi turlari farqlandi va ularning huquqiy tavsifi ochib berildi.

Tadqiqot ishining ikkinchi bobi "Yerdan foydalanish huquqining umumiy tavsifi" deb nomlanib, unda yerdan foydalanish huquqi tushunchasi va yerdan foydalanish huquqi turlari hamda yerdan foydalanish va muhofaza qilishda raqamlashtirish masalalari, yerdan foydalanishning shartnomaviy-huquqiy tartibining o'ziga xos jihatlari ochib berilgan.

Yerdan foydalanish huquqining quyidagi asosiy o'ziga xos xususiyatlari aniqlandi: 1) o'zganing yer uchastkasidan foydalanishni nazarda tutuvchi ashyoviy huquq. Yerdan xo'jalikda foydalanish maqsadli xususiyat kasb etadi va yer uchastkasining toifasiga bog'liq bo'ladi; 2) umumiy asoslardagi vorislik, shartnoma asosida boshqa shaxsga o'tkazish kabi ko'rinishda boshqa shaxslarga o'tkazish imkoniyati nazarda tutiladi; 3) yerdan foydalanishning haq evaziga amalga oshirilishi; 4) yerdan foydalanish huquqining mazmunini ochib beruvchi umumiy qoidalarni quyidagicha shakllantirish mumkin – taqdim qilingan yer uchastkasiga nisbatan qat'iy belgilangan maqsadlarda egalik qilish foydalanish va tasarruf etishga oid huquqiy layoqatlar majmuidir.

Yerdan foydalanish huquqi bir necha mezonlarga ko'ra tasniflandi: birinchidan, 1) davlatning yerdan foydalanish huquqi; 2) fuqarolarning yerdan foydalanish huquqi; 3) yuridik shaxslarning yerdan foydalanish huquqi. Yerdan foydalanish huquqi vujudga kelishining asoslari va shartlariga ko'ra 1) umumiy va 2) maxsus yerdan foydalanishga ajratiladi. O'z navbatida yerdan maxsus foydalanishni huquqi doimiy (muddatsiz) va tekin muddatli foydalanish, ijara huquqi, umrbod egalik qilish va o'zganing yer uchastkasidan cheklangan foydalanish kabi guruhlarga bo'lish mumkin.

Fermer xo'jaligi uchun yer ajratib berishning belgilangan tartibini amalga oshirishda quyidagi kamchilik va muammolar mavjudligi aniqlandi: Fermer xo'jaligi yuritish uchun chiqarilgan qarorlarda ko'rsatilgan yer maydonining o'rniga boshqa konturdagi, aksariyat hollarda sifati yomonroq bo'lgan yer uchastkasi berilganligi amaliyotda mavjud. Fermer xo'jaligining zarur hujjatlari

to'liq va lozim darajada (joylarda) rasmiylashtirilmayapti. Xattoki, ayrim holatlarda ijara shartnomalari tegishli tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilmaganligi ham aniqlandi. Fermer xo'jaligi faoliyatini birgalikda yuritishda qatnashayotgan, uning asosiy mehnat faoliyati joyi bo'lmagan, mehnat qobiliyatiga ega oila a'zolari va boshqa shaxslar fermer xo'jaligi a'zolari bo'lishi mumkin.

Yer uchastkalarining 3D modellarini ishlab chiqish orqali yer uchastkalari egalari (ijarachilarining) huquq va majburiyatlarini qayd etishning boshqa (hajmli) usulini talab qiladi, bu yer osti kommunikatsiyalari va boshqa obyektlarni aks ettirish, yer solig'i stavkalarini aniqroq hisoblash va h.k.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, davlat kadastr xaritalarini ham 3D formatga aylantirish imkoniyati mavjuddir, bu esa ularning axborot qiymatini sezilarli darajada oshiradi. Shubhasiz, bu boradagi ishlarning yangi formatga o'tishi katta byudjet harajatlarini talab qiladi, ammo bu Kadastr agentligi hamda ko'chmas mulk bilan bog'liq boshqaruv funksiyalarini bajaradigan boshqa davlat organlarining barcha ma'lumotlar bazalarini olib kirishga imkon beradi. Ushbu konsepsiyaning afzalliklari shundaki, "yagona ko'chmas mulk obyekti" ni yaratish uchun zarur shart-sharoitlar, shu jumladan yerning haqiqiy yuzasi, havo va yer qa'ri yaratiladi.

O'zR Yer kodeksi 24-moddasining yettinchi bandini "Agar qonun hujjatlarida boshqacha holat nazarda tutilmagan bo'lsa, ijarachi yer uchastkalari ijara shartnomasining amal qilish muddati tugaganidan keyin shartnomani yangilashda boshqa teng sharoitlarda ustun huquqqa ega", deb bayon etish taklif etildi. Chunki "agar qonun hujjatlarida boshqacha holat nazarda tutilmagan bo'lsa" shartining kiritilishi ijaraga beruvchining ustuvor huquqini mustahkamlaydi va yer uchastkasidan vijdonan foydalanmagan yoki huquqbuzarlik yoxud kamchiliklarga yo'l qo'ygan ijaraga oluvchi bilan yer uchastkasi ijarasi shartnomasini davom ettirmaslikka huquqiy asos sifatida xizmat qiladi.

O'zR Yer kodeksining 24-moddasidagi qoidaga aniqlik kiritish, ya'ni qoidani aynan ushbu dispozitsiyaning o'zida mustahkamlash va qonunchilikni birxillashtirish maqsadida bizningcha, O'zR Yer kodeksining 24-moddasining beshinchi bandini quyidagicha shakllantirish maqsadga muvofiqdir: "Ijaraga berilgan yer uchastkalari oldi-sotdi, garov, hadya, ayirboshlash obyekti bo'lishi mumkin emas. Yer uchastkasini ijaraga olish huquqi kreditlar olish uchun garovga qo'yilishi mumkin. Ijaraga oluvchi yer uchastkasiga doir o'zining ijaraga olish huquqlarini ijaraga beruvchining rozilgisiz garovga qo'yishga faqat ijara shartnomasida nazarda tutilgan hollarda haqli".

Dissertatsiya ishining uchinchi bobi "Yerdan foydalanish huquqining vujudga kelish asoslari va tartibi" deb nomlanib, unda yerdan foydalanish huquqining vujudga kelishi tartibi hamda unda yuridik faktlarning ahamiyati va yerga bo'lgan huquqni davlat ro'yxati olishning o'ziga xos xususiyatlariga to'xtalib o'tilgan.

Yerdan foydalanish huquqining vujudga kelish asoslari va tartibi yer qonunchiligida qat'iy belgilab berilgan bo'lib, bu yerlardan o'zboshimchalik bilan egallab olmaslik va foydalanmaslikni ta'minlash uchun xizmat qiladi. Yerdan foydalanish huquqining vujudga kelishida yuridik faktlarning muhim ahamiyatga

ega. Yer huquqiga binoan yuridik faktlar deganda, bu yerdan foydalanish huquqini vujudga kelishi, o'zgarishi yoki bekor bo'lishi uchun asos bo'luvchi hamda yer qonunchiligida o'z aksini topgan muayyan holatlar hisoblanadi.

Fuqarolarning yerdan foydalanish huquqining ko'pgina masalalari Yer kodeksida aniq tartibga solinmagan. Chunonchi, Yer kodeksida fuqarolarning yerga egalik qilish shakllari, yerga nisbatan mulk huquqi, yer oldi-sotdisi, yerdan foydalanish kabi masalalar o'z yechimini topmagan.

Yer kodeksida fuqarolarning yerdan foydalanish huquqiga bag'ishlangan alohida bob kiritilishi, ushbu bobda fuqarolar yer uchastkalariga xususiy mulk huquqi asosida ega bo'lishlari, ushbu huquqning vujudga kelish (oldi-sotdi) asoslari, yerdan foydalanish shakllari va turlari alohida huquqiy normalar bilan batafsil tartibga solinishi kerakligi asoslab berildi.

Yer uchastkasiga bo'lgan huquqlarning va bunday huquqlar ishtirokidagi bitimlarning qonun hujjatlarida belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazishning o'ziga xos xususiyatlari sifatida quyidagilar e'tirof etildi:

Birinchidan, faqatgina yuqorida ta'kidlangan yuridik jarayonning amalga oshirilganidan so'nggina yer uchastkasiga bo'lgan huquqlar vujudga kelgan hisoblanadi.

Ikkinchidan, davlat ro'yxatidan o'tkazish ro'yxatga olingan huquq mavjudligini tasdiqlashning yagona isbotidir.

Uchinchidan, tegishli tartibda davlat ro'yxatidan o'tqazilgan yer uchastkasiga bo'lgan huquq, jumladan servitut huquqiga nisbatan faqatgina sud tartibida shikoyat bildirilishi mumkin. Bu qoida amalda qonunchilik tomonidan ko'zda tutilgan ro'yxatga olingan yer uchastkasiga bo'lgan huquqlar mustahkamligini ta'minlovchi kafolatlardan biridir.

To'rtinchidan, yer uchastkasiga bo'lgan huquqlar faqatgina ro'yxatdan o'tkazilgandan so'nggina bunday huquqni tasqdiqlovchi hujjatlarga ega bo'ladi.

Dissertatsiya ishining to'rtinchi bobi "Yerdan foydalanish huquqini cheklash, to'xtatish, bekor bo'lish asoslari va tartibi" ga bag'ishlangan bo'lib, yerdan foydalanish huquqini cheklash, to'xtatish va bekor bo'lish asoslari hamda jamoat ehtiyojlari uchun kompensatsiya evaziga yer uchastkasini olib qo'yish, qayta sotib olish yerga bo'lgan huquqni bekor bo'lish asoslarining o'ziga xos jihatlari tahlil etilgan.

Huquqlarning bekor bo'lishi va vujudga kelishi tizimi bir-biri bilan uzviy bog'liq ekanligidan kelib chiqsak, bu dastavval yer uchastkasiga bo'lgan huquqlar bilan bog'liqdir. Chunki bu huquqning har qanday bekor bo'lishi natijasida ushbu huquq, ba'zi bir vaqt uzilishi bilan bo'lsa, boshqa subyektda vujudga keladi. Aks holda, yer yuqorida ta'kidlanganidek, o'zining iqtisodiy va huquqiy qiymatini yo'qotadi. Ya'ni, yer mulkdorining mavjud bo'lmasligi salbiy iqtisodiy va ekologik oqibatlarga olib kelishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksi 36-modda, 1-qismi birinchi bandini quyidagicha, mulk huquqidan voz kechish subyektlari aniq ko'rsatilgan holda bayon qilinishi maqsadga muvofiqligi asoslab berildi: "yuridik yoki jismoniy shaxs tomonidan yer uchastkasidan ixtiyoriy voz kechilganda".

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 191-moddasining talablaridan

kelib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksining ushbu beshinchi bandini quyidagicha bayon qilish maqsadga muvofiqligi asoslantirildi: “Yer uchastkasining egalik qiluvchisi, foydalanuvchisi, ijarachisi hamda mulkdori yer uchastkasiga bo‘lgan huquqlardan voz kechishidan yaqqol dalolat beruvchi xatti-harakatlar (chet elga jo‘nab ketganlik, yer uchastkasidan belgilanganidan ko‘proq muddat davomida foydalanmaslik) sodir etgan taqdirda, bu yer uchastkasi tegishli davlat organining yoki fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organining arizasiga muvofiq, qonun hujjatlari bilan belgilangan tartibda egasiz mol-mulk tariqasida hisobga olinadi”.

Yerga bo‘lgan huquqlarni bekor qilishning majburiy asoslarini quyidagicha belgilash taklif etildi: 1) majburiyatlar bo‘yicha undiruvni mol-mulkka qaratish; 2) qonunga asosan shaxsga tegishli bo‘la olmaydigan mol-mulkning begonalashtirilishi; 3) rekvizitsiya; 4) natsionalizatsiya; 5) yer to‘g‘risidagi qonun hujjatlari buzilganda yer uchastkasining olib qo‘yilishi; 6) yer uchastkalarini kompensatsiya evaziga jamoat ehtiyojlari uchun olib qo‘yish, qayta sotib olish.

O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksi, Fuqarolik kodeksi va O‘zbekiston Respublikasi 2001-yil 29-avgustdagi “Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to‘g‘risida”gi Qonunining talablarini unifikatsiyalashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksi 36-moddasining 1-qismini quyidagicha o‘n uchinchi band bilan to‘ldirish maqsad muvofiq: “13) yer uchastkasi egasining majburiyatlari yuzasidan undiruv qonun hujjatlarida belgilangan tartibda yer uchastkasiga qaratilgan taqdirda”.

O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksini qonunga asosan shaxsga tegishli bo‘la olmaydigan mol-mulkning begonalashtirilishi to‘g‘risidagi norma bilan to‘ldirish, ya’ni 36<sup>1</sup>-modda kiritish taklif qilindi va uning tahriri berildi.

O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksida ko‘rsatilgan yerga bo‘lgan mulk huquqi bekor bo‘lishi asoslarining O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida ko‘rsatilgan mulk huquqi bekor bo‘lishi asoslari bilan birxillashtirish va O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksini yer uchastkasi rekvizitsiyasiga oid 37<sup>2</sup>-modda va yer uchastkasi natsionalizatsiyasiga oid 37<sup>3</sup>-modda bilan to‘ldirish maqsadga muvofiqligi asoslab berildi.

O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksining yer to‘g‘risidagi qonun hujjatlari buzilganda yer uchastkasini olib qo‘yishga oid 38-moddasini takomillashtirish, xususan, unda yer uchastkasi egasi yoki foydalanuvchisi yer uchastkasini olib qo‘yish to‘g‘risidagi qarordan norozi bo‘lgan taqdirda yer uchastkasini olib qo‘yish to‘g‘risidagi qarorni bekor qilish haqida tegishli tartibda sudga shikoyat qilish huquqiga ega bo‘lishini mustahkamlash maqsadga muvofiq.

Natsionalizatsiya bo‘yicha quyidagicha xulosalarga kelindi: 1) natsionalizatsiya o‘zining huquqiy tabiatiga ko‘ra yuridik va jismoniy shaxslarning mulk huquqini davlat xavfsizligi, mudofaa qobiliyatini ta’minlash uchun lozim bo‘lgan darajada cheklaydi; 2) mol-mulkni natsionalizatsiya qilish faqatgina davlat manfaatlarini ko‘zlab amalga oshirilishi mumkin. Mol-mulk natsionalizatsiyasi jismoniy yoki yuridik shaxs manfaatlarini ko‘zlab amalga oshirilishi mumkin emas; 3) natsionalizatsiya faqatgina tegishli kompensatsiya, ya’ni natsionalizatsiya qilinayotgan mol-mulk qiymatini to‘lagan holda amalga oshiriladi.

Dissertatsiya ishining beshinchi bobi “Yerlarni muhofaza qilishning huquqiy holati” deb nomlanib, yerlarni muhofaza qilish va uning sifatiga oid ekologik me‘yorlashning huquqiy asoslari hamda yerlarni muhofaza qilishga oid chora-tadbirlarning yuridik mohiyati va yerdan foydalanish huquqi kafolatlarining ta‘minlanishi yerlarni muhofaza qilish asosi sifatidaga ahamiyati tadqiq etildi.

Tuproqning sifat normativlari avvalo qishloq xo‘jaligi yerlari uchun belgilanadi. Tuproqlarning holati ustidan nazoratni amalga oshirish uchun tuproqlarga yo‘l qo‘yiladigan ta‘sir darajalarini, ularning holatini, istiqbolini, ifloslantiruvchi moddalar tarkibini aniqlash, namunalarni olish va boshqa uslublarini ishlab chiqish eng ustuvor masala hisoblanadi.

Yerlarni muhofaza qilish sohasida me‘yorlar ikkita asosiy yo‘nalishga ega, birinchidan – sanoat, uy-joy qurilishi, foydali qazilmalarni qazib olish va qayta ishlash uchun hamda boshqa maqsadlarda yerlarni ajratib berishni tartibga solish yo‘li bilan yer fondidan oqilona foydalanishni ta‘minlash; ikkinchidan, insonlarning ishlab chiqarish faoliyati natijasida rekultivatsiya orqali buzilgan yerlarning holatini yaxshilash.

Yerlarni muhofaza qilishga oid huquqiy chora-tadbirlar ularni muhofaza qilish va oqilona foydalanishni ta‘minlashda muhim ahamiyatga ega. Keyingi yillarda respublikada yerlardan oqilona va samarali foydalanishni tashkil etish, ta‘sirchan nazoratni ta‘minlash hamda yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri sohasidagi munosabatlarni kompleks tartibga solishga yo‘naltirilgan bir qator chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Ayni damda biz yer sohasidagi qonun hujjatlari normalarini takomillashtirish istiqbollari o‘g‘a oid bir necha ustuvor yo‘nalishlarni ajratib ko‘rsatishni maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz:

Birinchidan, yer qonunchiligining yerlarning huquqiy muhofazasiga oid normalarini o‘rganish asosida ularning asosan yerlarning degradatsiya va boshqa zararli ta‘sirlardan muhofaza qilish hamda salbiy xo‘jalik ta‘siriga uchragan yerlarni qayta tiklashga qaratilganligini kuzatishimiz mumkin. Vaholanki, unda insonlar faoliyati natijasida salbiy ta‘sirga uchramagan yerlarning, ayniqsa, tabiiy kuchlar (toshqin, cho‘llanish va b.q.) salbiy ta‘siri ostida bo‘lgan yerlarning unumdorligini oshirish masalalari tartibga solinmagan. Ushbu kamchilikni bartaraf etish maqsadida Yer qonunchiligida mazkur masalalarga bag‘ishlangan hamda ularning o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi alohida normalar kiritilishi maqsadga muvofiq.

Ikkinchidan, hozirgi kunda yerlarning xususiylashtirilishi, yer ipotekasi borasida sezilarli ishlar amalga oshirilayotganligini hisobga olgan holda, shunday munosabatlar ob‘ekti bo‘lgan yer uchastkalarini huquqiy muhofaza qilish choralari ham qonunchilikda mustahkamlash zaruriyati tug‘ilmoqda. Shuningdek, yer bilan bog‘liq shartnomalarni tuzish, ularni amalga oshirish, ular bilan bog‘liq yuridik oqibatlarining kelib chiqishiga oid yuridik normalarning takomillashtirish maqsadga muvofiq.

Uchinchidan, yerlarni muhofaza qilishning muhim tadbirlaridan biri yerlarni rekultivatsiya qilish bo‘lib, uning huquqiy ifodasi yer qonunchiligida o‘z aksini topishi lozim. Unda, foydalanish uchun yoki ijaraga berilgan qishloq xo‘jaligi

yerlari yoxud o'rmon fondi yerlarida foydali qazilmalar konlarida qazib olish, geologik qidiruv hamda boshqa ishlarni amalga oshiruvchi tashkilotlar bu yerlarda ko'rsatilgan ishlar yakuniga yetgach, yerlarni qishloq hamda o'rmon xo'jaligida foydalanish uchun yaroqli holatga keltirish bo'yicha o'z hisoblaridan rekultivasiya qilish majburiyatini belgilash maqsadga muvofiq.

Yer-huquqiy javobgarlikni yuridik javobgarlikning mustaqil turi sifatida ajratib ko'rsatish uchun asos bo'lishi mumkin bo'lgan quyidagi o'ziga xos xususiyatlari ko'rsatib berildi: birinchidan, yer-huquqiy javobgarlik javobgarlikning an'anaviy shakllaridan o'zining mazmun-mohiyati bilan farqlanib, u yer-huquqiy normalarni buzish natijasida yerga yetkazilgan zararni bartaraf etish hamda tabiiy muhitni asl holiga qaytarishda namoyon bo'ladi; ikkinchidan, yer-huquqiy javobgarlik an'anaviy javobgarlik shakllaridan farq qiluvchi o'ziga xos maxsus ta'sir choralari bilan foydalanadi. Yer-huquqiy javobgarlik chorasi sifatida quyidagilarni ko'rsatishimiz mumkin, degan xulosaga kelish mumkin: a) yer uchastkasini olib qo'yish; b) yer uchastkasini qonuniy yerdan foydalanuvchiga qaytarish; v) yer bilan bog'liq qonunga xilof bitimlarni haqiqiy emas deb topish; g) yerning sifatini, hosildorligini tiklash bo'yicha ishlarni amalga oshirish majburiyatini yuklash.

Yer-huquqiy javobgarlikka quyidagicha ta'rif berildi: "yer-huquqiy javobgarlik deganda, yerni muhofaza qilish, shu jumladan, uni unumdorligi pasayishidan, kimyoviy va radioaktiv moddalar bilan ifloslanishdan asrash, yerdan oqilona, maqsadli va samarali foydalanishni ta'minlash, bu sohada davlat va jamiyat manfaatlarini ta'minlash, yerdan foydalanuvchilarning qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan yer qonunchiligi normalari bilan belgilangan yuridik ta'sir choralari majmui tushuniladi".

Ekologik jinoyatlarning moddiy tarkibini qo'llash murakkab jarayon ekanligi, ko'p hollarda ekologik jinoyatlarning real xavfli oqibatlarining kelib chiqishi belgilanishi qiyin bo'lgan uzoq muddat bilan ajralib turadi. Shu bois, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 196-moddasi birinchi qismini "Yerlarni ifloslantirish yoki buzish, suv yoki atmosfera havosini ifloslantirish odamlarning ommaviy ravishda kasallanishi, hayvonlar, parrandalar yoki baliqlarning qirilib ketishi real xavfini keltirib chiqarsa", deb o'zgartirish taklif qilindi.

Shu bilan birga yer sohasidagi jinoyatlar uchun javobgarlikni takomillashtirishning yana bir yo'nalishi bu yer sohasidagi jinoyatlar uchun yetkazilgan zararni qoplash majburiyatini jazo chorasi sifatida yuklash istiqboli o'rganildi hamda ekologik jinoyatlar uchun jazoning asosiy maqsadi bo'lib, atrof tabiiy muhitga etkazilgan zararni real (naturada) qoplash bo'lishi, jazoning boshqa maqsadlari esa, qo'shimcha maqsadlar bo'lishi lozim, degan xulosaga kelindi.

Sud tomonidan yetkazilgan zararni natura shaklida qoplashning asosiy yoki qo'shimcha jazo sifatida qo'llanilishi buzilgan yerlarni tez va real qayta tiklanishiga imkon beradi. Tabiatga yetkazilgan zararni qoplash usullari yoki turlari sudning hukmida ishning aniq holatlarini hisobga olgan holda belgilanishi lozim. Bunday shakllar sifatida: yer rekultivatsiyasi, suvni tozalash ishlarini amalga oshirish, zaharlangan suv havzasini tozalash va keyinchalik baliqlar bilan

to'ldirish; yerni ifloslantirish natijasida zarar ko'rgan hayvonot yoki o'simlik dunyosi obyektlarini ko'paytirish. Shu bois, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining yetkazilgan zararni natura holatida qoplash majburiyatini yuklashga oid 196<sup>1</sup>-modda bilan to'ldirish taklif qilindi.

AQSh, Daniya, GFR, Ispaniya kabi bir qator davlatlarda ekologik jinoyatlar uchun yuridik shaxslarning javobgarligi belgilangan bo'lib, ushbu ijobiy tajriba O'zbekiston Respublikasining yer va jinoyat qonunchiligini takomillashtirishda foydali bo'lishi asoslantirildi.

## XULOSA

Mazkur mavzuni tadqiq etish jarayonida yerdan foydalanish va muhofaza qilishni huquqiy tartibga solishga doir quyidagicha nazariy va amaliy xulosa, taklif va tavsiyalar asoslab berildi:

### **I. Ilmiy nazariy xulosalar:**

1.1. Mustaqillik yillarida yer qonunchiligining rivojlanishi shartli ravishda uch bosqichga ajratildi va har bir bosqichning o'ziga xos xususiyatlari ochib berildi: Birinchi bosqich, mustaqillikning ilk yillari va o'tish davrida yer munosabatlarini tartibga solishga qaratilgan qonunchilik asoslarining shakllanishi hamda mustaqil O'zbekistonda yer berish, yer ajratish bilan bog'liq masalalarni tartibga solishning huquqiy manbalari belgilanishi, yerlarni muhofaza qilishning konstitutsiyaviy asoslari yaratilishi bilan tavsiflanadi hamda 1991-1998-yillarni qamrab oladi. Ikkinchi bosqich, bozor munosabatlariga o'tish sharoitida yer munosabatlarini tartibga solishning barqaror asoslarining shakllanishi, yer qonunchiligining kodifikatsiyalashuvi amalga oshirilishi, yer sohasida davlat boshqaruvining takomillashuvi, yer sohasidagi kadastr va monitoring institutlarining huquqiy asoslari ishlab chiqilganligi bilan tavsiflanadi (1998-2006-yillar). Uchinchi bosqich, yerdan foydalanishning asosiy tashkiliy-huquqiy shakli sifatida fermer xo'jaliklari faoliyatiga taalluqli, xususan, fermer xo'jaliklari faoliyati samaradorligini oshirish bilan bog'liq normativ-huquqiy hujjatlar majmui qabul qilinganligi kabi xususiyatlar bilan tavsiflanadi (2006-2017-yillar). To'rtinchi bosqich: Yangi O'zbekiston bosqichi, bozor munosabatlariga o'tilishi tufayli yerlarni fuqarolik muomalasiga jalb etishga yo'naltirilgan, yer sohasida ipoteka va bozor munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan qonunchilik hujjatlari qabul qilinganligi qabul qilinganligi kabi xususiyatlar bilan tavsiflanadi (2017-yildan hozirgi vaqtga qadar bo'lgan davr).

1.2. Yerdan foydalanish huquqiga quyidagicha mualliflik ta'rifi berildi: "yerdan foydalanish huquqi – yer uchastkalarini foydalanishga taqdim qilish bilan bog'liq ravishda yer huquqiy munosabatlarning subyektlari–yerdan foydalanuvchilarda vujudga keladigan huquqiy vakolatlarining majmui (subyektiv ma'noda) yoxud yerni foydalanishga taqdim etish, yerdan foydalanish huquqini vujudga keltirish, o'zgartirish va bekor qilish shartlari hamda tartibini mustahkamlovchi va tartibga soluvchi turdosh yer-huquqiy normalar majmuidir (obyektiv ma'noda)".

1.3. Yerdan foydalanish huquqining quyidagi o'ziga xos xususiyatlari aniqlandi: 1) o'zganing yer uchastkasidan foydalanishni nazarda tutuvchi ashyoviy huquq. Yerdan xo'jalikda foydalanish maqsadli xususiyat kasb etadi va yer uchastkasining toifasiga bog'liq bo'ladi; 2) umumiy asoslardagi vorislik, shartnoma asosida boshqa shaxsga o'tqazish kabi ko'rinishda boshqa shaxslarga o'tkazish imkoniyati nazarda tutiladi; 3) yerdan foydalanishning haq evaziga amalga oshirilishi; 4) yerdan foydalanish huquqining mazmunini ochib beruvchi umumiy qoidalarni quyidagicha shakllantirish mumkin – taqdim qilingan yer uchastkasiga nisbatan qat'iy belgilangan maqsadlarda egalik qilish foydalanish va tasarruf etishga oid huquqiy layoqatlar majmuidir.

1.4. Yer-huquqiy javobgarlikka quyidagicha mualliflik ta'rifi berildi: “yer-huquqiy javobgarlik deganda, yerni muhofaza qilish, shu jumladan, uni unumdorligi pasayishdan, kimyoviy va radioaktiv moddalar bilan ifloslanishdan asrash, yerdan oqilona, maqsadli va samarali foydalanishni ta'minlash, bu sohada davlat va jamiyat manfaatlarini ta'minlash, yerdan foydalanuvchilarning qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan yer qonunchiligi normalari bilan belgilangan yuridik ta'sir choralari majmui tushuniladi”.

1.5. Yer-huquqiy javobgarlikni yuridik javobgarlikning mustaqil turi sifatida ajratib ko'rsatish uchun asos bo'lishi mumkin bo'lgan quyidagi o'ziga xos xususiyatlari aniqlandi: birinchidan, yer-huquqiy javobgarlik javobgarlikning an'anaviy shakllaridan o'zining mazmun-mohiyati bilan farqlanib, u yer-huquqiy normalarni buzish natijasida yerga yetkazilgan zararni bartaraf etish hamda tabiiy muhitni asl holiga qaytarishda namoyon bo'ladi; ikkinchidan, yer-huquqiy javobgarlik an'anaviy javobgarlik shakllaridan farq qiluvchi o'ziga xos maxsus ta'sir choralaridan foydalanadi. Yer-huquqiy javobgarlik chorasini sifatida quyidagilarni ko'rsatishimiz mumkin: a) yer uchastkasini olib qo'yish; b) yer uchastkasini qonuniy yerdan foydalanuvchiga qaytarish; v) yer bilan bog'liq qonunga xilof bitimlarni haqiqiy emas deb topish; g) yerning sifatini, hosildorligini tiklash bo'yicha ishlarni amalga oshirish majburiyatini yuklash.

1.6. Yer sohasidagi qonun hujjatlari normalarini takomillashtirish istiqbollari o'zida bir necha ustuvor yo'nalishlar ajratib ko'rsatildi: Birinchidan, yer qonunchiligining yerlarning huquqiy muhofazasiga oid normalarini o'rganish asosida ularning asosan yerlarning degradatsiya va boshqa zararli ta'sirlardan muhofaza qilish hamda salbiy xo'jalik ta'siriga uchragan yerlarni qayta tiklashga qaratilganligini kuzatishimiz mumkin. Vaholanki, unda insonlar faoliyati natijasida salbiy ta'sirga uchramagan yerlarning, ayniqsa, tabiiy kuchlar (toshqin, cho'llanish va b.q.) salbiy ta'siri ostida bo'lgan yerlarning unumdorligini oshirish masalalari tartibga solinmagan. Ushbu kamchilikni bartaraf etish maqsadida yer kodeksida mazkur masalalarga bag'ishlangan hamda ularning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi alohida modda kiritilishi maqsadga muvofiq. Ikkinchidan, hozirgi kunda yerlarning xususiylashtirilishi, yer ipotekasi borasida sezilarli ishlar amalga oshirilayotganligini hisobga olgan holda, shunday munosabatlar obyekt bo'lgan yer uchastkalarini huquqiy muhofaza qilish choralari ham qonunchilikda mustahkamlash zaruriyati tug'ilmoqda. Shuningdek, yer bilan bog'liq shartnomalarni tuzish, ularni amalga oshirish, ular bilan bog'liq yuridik

oqibatlarining kelib chiqishiga oid yuridik normalarning takomillashtirish maqsadga muvofiq. Uchinchidan, tuproq yerning unumdor qatlami va umuman qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetkazib beruvchi asosiy organik moddalarni saqlovchisi ekanligini hisobga olgan holda Yer kodeksida tuproq unumdorligini saqlash va oshirishga bag'ishlangan alohida bob kiritilishi maqsadga muvofiq. Ushbu bob doirasida tuproq unumdorligini ta'minlashning asosiy yo'nalishlari, tuproq unumdorligini ta'minlash sohasida davlat va hududiy dasturlar, tuproq unumdorligini ta'minlash ustidan nazorat, tuproq unumdorligini me'yorlash, tuproq va agrokimyo xizmatini ko'rsatish, tuproq unumdorligini ta'minlash sohasidagi faoliyatni moliyalashtirish, tuproq unumdor qatlamini sidirib olish va saqlash kabi masalalarni tartibga solish zarur. To'rtinchidan, yerlarni muhofaza qilishning muhim tadbirlaridan biri yerlarni rekul'tivatsiya qilish bo'lib, uning huquqiy ifodasi yer qonunchiligida o'z aksini topishi lozim. Shunga muvofiq, Yer kodeksining yerlarni muhofaza qilishga oid 11-bobida yerlarni rekul'tivatsiya qilish bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soluvchi maxsus modda kiritish zarur. Unda, foydalanish uchun yoki ijaraga berilgan qishloq xo'jaligi yerlari yoxud o'rmon fondi yerlarida foydali qazilmalar konlarida qazib olish, geologik qidiruv hamda boshqa ishlarni amalga oshiruvchi tashkilotlar bu yerlarda ko'rsatilgan ishlar yakuniga yetgach, yerlarni qishloq hamda o'rmon xo'jaligida foydalanish uchun yaroqli holatga keltirish bo'yicha o'z hisoblaridan rekul'tivatsiya qilish majburiyatini belgilash maqsadga muvofiq.

1.7. Yer sohasida davlat boshqaruviga quyidagicha mualliflik ta'rifi ishlab chiqildi: yer sohasida davlat boshqaruvi deganda, kompleks tashkiliy, huquqiy va iqtisodiy choralarni amalga oshirish yo'li bilan yerlardan oqilona va samarali foydalanishga, uni muhofaza qilish, qayta tiklash va tuproq qatlamining unumdorligini oshirish, insonlar uchun qulay va sog'lom bo'lgan tabiiy muhitni yaratish va saqlab qolishga, yerga egalik qilish va foydalanishga yo'naltirilgan choralar tizimi tushuniladi.

1.8. Yerdan foydalanish huquqi bir necha mezonlarga ko'ra tasniflandi: birinchidan, subyektiga ko'ra: 1) davlatning yerdan foydalanish huquqi; 2) fuqarolarning yerdan foydalanish huquqi; 3) yuridik shaxslarning yerdan foydalanish huquqi. Yerdan foydalanish huquqi vujudga kelishining asoslari va shartlariga ko'ra 1) umumiy 2) maxsus yerdan foydalanishga ajratiladi. O'z navbatida yerdan maxsus foydalanish huquqini doimiy, mulk huquqi, ijara huquqi va o'zganing yer uchastkasidan cheklangan foydalanish kabi guruhlarga bo'lish mumkin. Taqdim qilingan yer uchastkasidan foydalanishning maqsadiga ko'ra yerdan foydalanish – bog'dorchilik olib borish, turar va noturar joylarni qurish va ekspluatatsiya qilish, muhandislik infrastrukturasi obyektlarini joylashtirish va boshqalarga ajratilishi mumkin.

1.9. Yer uchastkasiga bo'lgan huquqlarning va bunday huquqlar ishtirokidagi bitimlarning qonun hujjatlarida belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazishning o'ziga xos quyidagi xususiyatlari e'tirof etildi: Birinchidan, faqatgina yuqorida ta'kidlangan yuridik jarayonning amalga oshirilganidan so'nggina yer uchastkasiga bo'lgan huquqlar vujudga kelgan hisoblanadi. Ikkinchidan, davlat ro'yxatidan o'tkazish ro'yxatga olingan huquq

mavjudligini tasdiqlashning yagona isbotidir. Uchinchi, tegishli tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan yer uchastkasiga bo'lgan huquq, jumladan servitut huquqiga nisbatan faqatgina sud tartibida shikoyat bildirilishi mumkin. Bu qoida amalda qonunchilik tomonidan ko'zda tutilgan ro'yxatga olingan yer uchastkasiga bo'lgan huquqlar mustahkamligini ta'minlovchi kafolatlardan biridir. To'rtinchidan, yer uchastkasiga bo'lgan huquqlar faqatgina ro'yxatdan o'tkazilgandan so'nggina bunday huquqni taqdiqlovchi hujjatlarga ega bo'ladi.

1.10. Yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarning kafolatlariga quyidagicha mualliflik ta'rifi berildi: "Yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarning kafolatlariga deganda, yer egalari, yerdan foydalanuvchilar, yer uchastkalarining ijarachilari va mulkdorlarini ularning faoliyatiga noqonuniy aralashuvdan himoya qilish, ularning buzilgan huquqlarini tiklash, ularga yetkazilgan zararni qoplash, yer uchastkasini jamoat ehtiyojlari uchun kompensatsiya evaziga olib qo'yishda ularning huquqlarini kafolatlashga, yer uchastkasiga bo'lgan huquqlarni cheklashning faqat qonunda ko'rsatilgan asos va tartibda amalga oshirilishini belgilashga qaratilgan huquqiy normalar majmui".

1.11. O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksining yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarning kafolatlariga oid 41-moddasini quyidagi qoida va talablar bilan rivojlantirish maqsadga muvofiqligi asoslantirildi: yer huquqlarini himoya qilish usullarini ko'rsatish; ma'muriy-hududiy va hududiy birlik chegaralarini o'zgarganda yerdan foydalanuvchilar huquqlarining kafolatlarini belgilash; yerdan foydalanuvchilarga yer uchastkalarini olib qo'yish yoki vaqtinchalik egallash, unda joylashgan ko'chmas mulk obyektlarini buzish, yer uchastkasiga bo'lgan huquqlarni cheklash, shu jumladan, yer servituti belgilanishi munosabati bilan yetkazilgan zararlarni qoplash masalalarini huquqiy jihatdan tartibga solish maqsadga muvofiq.

1.12. Yerga bo'lgan huquqlarni bekor qilishning majburiy asoslari quyidagicha tasniflandi: 1) majburiyatlar bo'yicha undiruvni mol-mulkka qaratish; 2) qonunga asosan shaxsga tegishli bo'la olmaydigan mol-mulkning begonalashtirilishi; 3) rekvizitsiya; 4) natsionalizatsiya; 5) yer to'g'risidagi qonun hujjatlari buzilganda yer uchastkasining olib qo'yilishi; 6) yer uchastkasini jamoat ehtiyojlari uchun kompensatsiya evaziga olib qo'yish, qayta sotib olish.

1.13. Yer uchastkasi natsionalizatsiyasi bo'yicha quyidagicha xulosalarga kelindi: 1) natsionalizatsiya o'zining huquqiy tabiatiga ko'ra yuridik va jismoniy shaxslarning mulk huquqini davlat xavfsizligi, mudofaa qobiliyatini ta'minlash uchun lozim bo'lgan darajada cheklaydi; 2) mol-mulkni natsionalizatsiya qilish faqatgina jamoat ehtiyojlarini ko'zlab amalga oshirilishi mumkin. Mol-mulk natsionalizatsiyasi jismoniy yoki yuridik shaxs manfaatlarini ko'zlab amalga oshirilishi mumkin emas; 3) natsionalizatsiya faqatgina tegishli kompensatsiya, ya'ni natsionalizatsiya qilinayotgan mol-mulk qiymatini to'lagan holda amalga oshiriladi.

1.14. Yer kodeksida fuqarolarning yerdan foydalanish huquqiga bag'ishlangan alohida bob kiritilishi, ushbu bobda fuqarolar yer uchastkalariga xususiy mulk huquqi asosida ega bo'lishlari, ushbu huquqning vujudga kelish (oldi-sotdi) asoslari, yerdan foydalanish shakllari va turlari alohida huquqiy

normalar bilan batafsil tartibga solinishi kerakligi asoslab berildi.

1.15. Yer sohasidagi jinoyatlar uchun javobgarlikni takomillashtirishning yana bir yo‘nalishi bu yer sohasidagi jinoyatlar uchun yetkazilgan zararni qoplash majburiyatini jazo chorasi sifatida yuklash istiqboli o‘rganildi hamda ekologik jinoyatlar uchun jazoning asosiy maqsadi bo‘lib, atrof tabiiy muhitga yetkazilgan zararni real (naturada) qoplash bo‘lishi, jazoning boshqa maqsadlari esa, qo‘shimcha maqsadlar bo‘lishi lozim, degan xulosaga kelindi.

1.16. Sud tomonidan yetkazilgan zararni natura shaklida qoplashning asosiy yoki qo‘shimcha jazo sifatida qo‘llanilishi buzilgan yerlarni tez va real qayta tiklanishiga imkon beradi. Tabiatga yetkazilgan zararni qoplash usullari yoki turlari sudning hukmida ishning aniq holatlarini hisobga olgan holda belgilanishi lozim. Bunday shakllar sifatida: yer rekul’tivatsiyasi, suvni tozalash ishlarini amalga oshirish, zaharlangan suv havzasini tozalash va keyinchalik baliqlar bilan to‘ldirish; yerni ifloslantirish natijasida zarar ko‘rgan hayvonot yoki o‘simlik dunyosi obyektlarini ko‘paytirish. Shu bois, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksini yetkazilgan zararni natura holatida qoplash majburiyatini yuklashga oid 196<sup>1</sup>-modda bilan to‘ldirish taklif qilindi.

1.17. AQSH, Daniya, GFR, Ispaniya kabi bir qator davlatlarda ekologik jinoyatlar uchun yuridik shaxslarning javobgarligi belgilangan bo‘lib, ushbu ijobiy tajriba O‘zbekiston Respublikasining yer va jinoyat qonunchiligini takomillashtirishda foydali bo‘lishi asoslantirildi.

## **II. Yer qonunchiligini takomillashtirishga oid taklif va tavsiyalar:**

2.1. So‘nggi yillarda olib borilgan islohotlar natijasida yer munosabatlari tubdan takomillashganligi, yer uchastkalari mulk, ijara va doimiy foydalanish huquqi asosida realizatsiya qilinayotganligi, yerdan foydalanish huquqi mazmunining yangilanganligi hamda yer ajratish va uni realizatsiya qilish jarayonida raqamlashtirishning qo‘llanilishini inobatga olgan holda yangi, to‘g‘ridan to‘g‘ri amal qiluvchi yer kodeksini ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

2.2. O‘zbekiston Respublikasi yer kodeksi 24-moddasi 1-bandini quyidagi tahrirda berish taklif etiladi.

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer uchastkalari quyidagilarga ijara huquqi asosida beriladi:

1) elektron onlayn-auksion natijalari asosida –jismoniy va yuridik shaxslarga;

2.3. O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksi 24-moddasida nazarda tutilgan yer uchastkasi ijarasi shartnomasining huquqiy tartibga solinishida asosan quyidagi ikki holat muhim: 1) ijara shartnomasi muddatini uzaytirish. O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksi 24-moddasining yettinchi bandiga muvofiq, ijarachi yer uchastkalari ijara shartnomasining amal qilish muddati tugaganidan keyin shartnomani yangilashda boshqa teng sharoitlarda ustun huquqqa ega ekanligi e‘tirof etilgan. Ushbu qoidani bizningcha, “Agar qonun hujjatlarida boshqacha holat nazarda tutilmagan bo‘lsa, ijarachi yer uchastkalari ijara shartnomasining amal qilish muddati tugaganidan keyin shartnomani yangilashda boshqa teng sharoitlarda ustun huquqqa ega” sifatida shakllantirish maqsadga muvofiq. Chunki

“agar qonun hujjatlarida boshqacha holat nazarda tutilmagan bo‘lsa” shartining kiritilishi ijaraga beruvchining ustuvor huquqini mustahkamlaydi va yer uchastkasidan vijdonan foydalanmagan yoki huquqbuzarlik yoxud kamchiliklarga yo‘l qo‘ygan ijaraga oluvchi bilan yer uchastkasi ijarasi shartnomasini davom ettirmaslikka huquqiy asos sifatida xizmat qiladi. Chunki yer uchastkasidan belgilangan maqsadlardan og‘ishib foydalangan yoki huquqbuzarlik, kamchiliklarga yo‘l qo‘ygan ijarachi ijara shartnomasini uzaytirishga haqli emas.

2.4. Ekologik jinoyatlarning moddiy tarkibini qo‘llash murakkab jarayon ekanligi ko‘p hollarda ekologik jinoyatlarning real xavfli oqibatlarining kelib chiqishi belgilanishi qiyin bo‘lgan uzoq muddat bilan ajralib turadi. Shu bois, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 196-moddasi birinchi qismini “Yerlarni ifloslantirish yoki buzish, suv yoki atmosfera havosini ifloslantirish odamlarning ommaviy ravishda kasallanishi, hayvonlar, parrandalar yoki baliqlarning qirilib ketishi real xavfini keltirib chiqarsa”, deb o‘zgartirishni taklif qilamiz.

2.5. Yer qonunchiligida ijara huquqi vujudga kelishi masalasiga alohida e‘tibor qaratilmasdan qolmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 24-moddasida yer uchastkasi ijarasi shartnomasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishi lozimligi e‘tirof etilmagan. Shu sababli O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 24-moddasiga quyidagicha o‘ninchi band qo‘shish bizningcha, maqsadga muvofiqdir: “Yer uchastkasi ijarasi shartnomasi tegishli tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganidan so‘ng yer uchastkasidan ijara asosida foydalanish huquqi vujudga keladi”.

2.6. O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 16-moddasini 2- va 3-bandlar bilan to‘ldirish lozim:

Yuridik va jismoniy shaxslar yerdan qonunda nazarda tutilgan hamda undan oqilona foydalanish va umummilliy boyluk sifatida muhofaza qilishni ta‘minlovchi shartlar asosida va tartibda xususiy mulk huquqiga ega bo‘lishi mumkin.

Yuridik va jismoniy shaxslar xususiy yer uchastkalarini oldi-sotdi qilish, ayirboshlash, hadya qilish va garovga qo‘yish huquqiga egadirlar.

2.7. O‘zbekiston Respublikasining Yer kodeksini 41<sup>1</sup>-modda bilan to‘ldirish lozim:

41<sup>1</sup>-modda. Yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlarning kafolatlari

Yer munosabatlari sohasida huquqiy harakatlar, iqtisodiy, tashkiliy, texnik va boshqa chora-tadbirlarni amalga oshirish;

manfaatdor shaxslarning yerdan oqilona foydalanish va muhofaza qilishga qaratilgan takliflar tayyorlashda ishtirok etishini ta‘minlash;

yer munosabatlari sohasida ekologik xavfsizlikni ta‘minlash;

qonunchilikka muvofiq belgilangan tartibda manfaatdor shaxslarni yerlar miqdori, holati, foydalanish va muhofaza qilish to‘g‘risidagi ma‘lumotlar bilan ta‘minlash.

2.8. O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 37-moddasida davlat organi qarori bilan yer uchastkasini olib qo‘yish, tegishli rozilik yoki kelishuv bo‘lmaganda amalga oshirilishi lozimligini mustahkamlash ko‘zda tutilmoqda. Bu ham har qanday holatda ham davlat organlarining avvalambor, tegishli kelishuvga

erishish uchun harakat qilish majburiyatini belgilaydi.

37-modda: “Yer uchastkasi yoki uning bir qismi kompensatsiya evaziga jamoat ehtiyojlari uchun yer egasining roziligi bilan yoki yerdan foydalanuvchi va ijarachi bilan kelishilgan holda, shuningdek bunday rozilik yoki kelishuvga erishishning imkoni bo‘lmagan taqdirda tegishincha tuman, shahar, viloyat hokimining qaroriga yoxud O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga binoan olib qo‘yiladi”.

2.9. Fuqarolarning yerdan foydalanish huquqining ko‘pgina masalalari Yer kodeksi aniq tartibga solinmagan. Chunonchi, Yer kodeksida fuqarolarning yerga egalik qilish shakllari, yerga nisbatan mulk huquqi, yer oldi-sotdisi, yerdan foydalanish kabi masalalar o‘z yechimini topmagan. Shu sababdan, Yer kodeksida fuqarolarning yerdan foydalanish huquqiga bag‘ishlangan alohida bob kiritilishi, ushbu bobda fuqarolar yer uchastkalariga xususiy mulk huquqi asosida ega bo‘lishlari, ushbu huquqning vujudga kelish (oldi-sotdi) asoslari, yerdan foydalanish shakllari va turlari alohida huquqiy normalar bilan batafsil tartibga solinishi kerak.

2.10. O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksi 38-moddasining uchinchi bandini quyidagicha bayon etish taklif etiladi: “... Korxonalar, binolar va inshootlar qurish uchun yer uchastkalarini olib qo‘yishdan manfaatdor bo‘lgan korxonalar, muassasalar va tashkilotlar loyihalash boshlangunga qadar hududni kompleks rivojlantirishni ta‘minlashni inobatga olgan holda obyekt quriladigan joyni, uchastkaning taxminiy o‘lchami va uni ajratish shartlarini yer egalari, yerdan foydalanuvchilar va ijarachilar, shuningdek tegishincha tuman, shahar, viloyat hokimi yoki O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bilan oldindan kelishib olishlari shart. Bunday tarzda oldindan kelishib olinmagunga qadar loyiha ishlarini moliyalashga yo‘l qo‘yilmaydi. Yer egalari, yerdan foydalanuvchilar va ijarachilar yer uchastkasi davlat va jamoat ehtiyojlari uchun olib qo‘yilishi haqida bunday olib qo‘yish to‘g‘risidagi tegishincha tuman, shahar, viloyat hokimi yoki O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori qabul qilinishidan eng kamida olti oy oldin ogohlantiriladi”.

2.11. Yer sohasidagi jinoyatlar uchun javobgarlikni takomillashtirishning muhim yo‘nalishi sifatida yer sohasidagi jinoyatlar uchun yetkazilgan zararni qoplash majburiyatini jazo chorasi sifatida yuklash istiqboli o‘rganildi. Ekologik jinoyatlar uchun jazoning asosiy maqsadi bo‘lib, atrof tabiiy muhitga yetkazilgan zararni real (naturada) qoplash bo‘lishi, jazoning boshqa maqsadlari esa, qo‘shimcha maqsadlar bo‘lishi lozimligi asoslantirildi. Tabiatga yetkazilgan zararni qoplash usullari yoki turlari sudning hukmida ishning aniq holatlarini hisobga olgan holda belgilanishi lozim. Bunday shakllar sifatida: yer rekul’tivatsiyasi, suvni tozalash ishlarini amalga oshirish, zaharlangan suv havzasini tozalash va keyinchalik baliqlar bilan to‘ldirish; yerni ifloslantirish natijasida zarar ko‘rgan hayvonot yoki o‘simlik dunyosi obyektlarini ko‘paytirish. Sud tomonidan yetkazilgan zararni natura shaklida qoplashning asosiy yoki qo‘shimcha jazo sifatida qo‘llanilishi buzilgan yerlarni tez va real qayta tiklanishiga imkon beradi, degan xulosaga kelindi. Shu bois, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 196<sup>1</sup>-modda bilan to‘ldirish taklif qilindi: “196<sup>1</sup>-

modda. Yetkazilgan zararni natura holatida qoplash majburiyatini yuklash. Yetkazilgan zararni natura holatida qoplash majburiyatini yuklash atrof tabiiy muhit, tabiiy obyektga yetkazilgan zararni bevosita qoplash orqali amalga oshiriladi. Yetkazilgan zararni natura holatida qoplash shakli (yer rekul'tivatsiyasi, suv havzasida baliq ko'paytirish, daraxt yetishtirish va h.k.) sud tomonidan belgilanadi. Yetkazilgan zararni natura holatida qoplashning imkoni bo'lmasa, sud yetkazilgan zararni o'z mablag'lari hisobidan qoplash majburiyatini yuklashi mumkin".

### **III.Yer qonunchiligi hujjatlarini qo'llash amaliyotini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar:**

3.1. Mamlakatimizda yer muhofazasi sohasidagi maxsus davlat boshqaruvi bilan O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi shug'ullanadi, ya'ni bu muhim sohani mustaqil vazirlik emas, balki agentlik boshqaradi. Shu sababdan, yer boyliklarini muhofaza qilishning o'ta muhimligini, bunda davlatning roli alohida ahamiyatga ega ekanligini e'tiborga oladigan bo'lsak, bu sohani agentlik bilan emas, balki yuqori maqomga ega bo'lgan mustaqil vazirlik bilan boshqarish maqsadga muvofiqdir. Aytilganlardan kelib chiqib, bizning fikrimizga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligini mustaqil vazirlikka aylantirish va uning huquqiy maqomini belgilovchi Nizomni ishlab chiqish lozim.

3.2. Yer resurslarini muhofaza qilishda sohaviy boshqarishni takomillashtirish, bu sohada davlat boshqaruvni kuchaytirish maqsadida Qishloq xo'jaligi va Suv xo'jaligi vazirliklarida, Yer resurslari Bosh boshqarmalari tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Shu bilan birga viloyat va tuman hokimliklarida Yer bo'limlari tashkil etish yaxshi natijalarga olib kelgan bo'lar edi.

3.3. Amaldagi qonunlarimizda yer resurslarini muhofaza qilish talablarini buzganlik uchun qo'llaniladigan yuridik javobgarlikning samaradorligi juda past darajada, hatto sud amaliyotida yer huqubuzarliklari uchun zarar miqdorini aniqlash tajribasi deyarli yo'q. Amaliyotdagi ushbu kamchiliklarni quyidagi holatlar bilan izohlash mumkin. Bular, birinchidan, qonunda yerga yetkazilgan zararga to'g'ri baho berilmaganligida; ikinchidan, zarar miqdorini aniq hisoblashning qiyinligida; uchinchidan, yer resurslari qiymatining belgilanmaganligida; va, nihoyat, to'rtinchidan ushbu zararni hisoblab chiqishning yagona tizimi ishlab chiqilamaganligidadir. Bu esa, yerni muhofaza qilishga jiddiy putur yetkazmoqda hamda bu sohada huquqbuzarliklarni yanada ko'payishiga sabab bo'lmoqda. Shuning uchun yer huqubuzarliklari uchun sudlar faoliyatini rivojlantirish, sud amaliyotini takomillashtirish hozirgi davrning asosiy vazifalaridan biridir.

3.4. Mamlakatimizda atrof tabiatni ifloslanishi yuzasidan monitoring ishlarini amalga oshirish bo'yicha mobil laboratoriyalar, zamonaviy nazorat-o'lchov asbob-uskunalari yordamida ishlar tashkil qilinmoqda. Bu borada fikrimizcha, ushbu sohada sun'iy yo'ldosh navigatsiyasi (GPS, GLONASS, GALILEO) ni ishga tushirish samarali bo'lib, ayniqsa bunda uning yordamida zararli moddalarni suvlar, atmosfera havosi va tuproqlarda mavjudligini aniqlashga

oid ma'lumotlar to'plash, turli zararli ta'sirlarni oldini olish choralarini ko'rish imkonini beradi. Mamlakatimizda sun'iy yo'ldosh orqali aloqalar, kosmik navigatsiya, kosmik tadqiqotlar hamda bu sohada ta'limni rivojlantirish muhim hisoblanib, Yerni masofadan zondlash ishlarini amalga oshirish, unda o'simlik va hayvonot dunyosi, suv va yer resurslari, atmosfera havosi hamda tabiiy hududlarning ahvoli yohud holatining aniq tasniflash yo'lga qo'yilishi lozim.

3.5. Amaliy jihatdan O'zbekiston Respublikasining "O'simliklarni himoya qilish to'g'risida"gi qonunida o'simliklarni himoya qilish vositalari yerlarning sifati, shuningdek tuproq tahliliga va boshqa tahlillarga asosan aniqlanadigan tuproq unumdorligining holatini aniqlovchi standartlashtirish faoliyatida ekologik talablar hisobga olinishi va o'simliklarni himoya qilish vositalarini qo'llash me'yorlari to'g'risida qoida belgilanishi muhim ahamiyatga egadir.

3.6. Yerlarni muhofaza qilish talablarga muvofiq yerning mo'ljallangan maqsadidan kelib chiqib, ushbu faoliyatni amalga oshirishning tabiiy sharoitlariga nisbatan yuqorida qayd etilgan talablarni aniqlashtirish hamda tizimlashtirish lozim bo'lib, bunda yerni har qanday xo'jalik faoliyatning salbiy ta'siridan himoya qilish maqsadida ekologik standartlarni ishlab chiqish zarur.

3.7. Yer uchastkalarining 3D modellarini ishlab chiqish orqali yer egalari, mulkdorlari va ijarachilarining huquq va majburiyatlarini qayd etishning boshqacha (hajmli) usulini ishlab chiqish zarur, bu yer solig'i stavkalarini aniqroq hisoblash, qolaversa, aniq va ishonchli yer rejalarini yaratish uchun 3D xaritalash texnologiyalaridan foydalanishni taqozo etadi. Bu esa ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish jarayonini tezlashtirish, yer uchastkalari chegaralarini belgilashda yo'l qo'yiladigan xatolar sonini kamaytirish hamda yer munosabatlari sohasidagi davlat organlari faoliyatining umumiy shaffofligi va samaradorligini oshirish imkonini beradi.

**SCIENTIFIC COUNCIL AWARDING OF THE SCIENTIFIC DEGREES  
DSc.07/03.06.2023.Yu.22.04 AT TASHKENT STATE UNIVERSITY OF  
LAW**

---

**TASHKENT STATE UNIVERSITY OF LAW**

**BOBOKULOV SHOKNAZAR OCHILOVICH**

**THE LEGAL ISSUES OF REGULATION OF THE LAND USE AND  
PROTECTION**

12.00.06 – Natural resources law. Agrarian law. Environmental law

**Doctoral (DSc) dissertation abstract on legal scien  
ABSTRACT  
of the dissertation of the Doctor of Science on legal sciences**

## Tashkent – 2025

The theme of the doctoral dissertation (DSc) was registered at the Supreme Attestation Commission under Ministry of higher education, science and innovations of the Republic of Uzbekistan number B 2024.1.DSc/Yu290.

The dissertation is prepared at Tashkent State University of Law.

The abstract of the dissertation is posted in three languages (Uzbek, English, Russian (summary)) on the website of the Scientific Council (<https://tsul.uz/uz/fan/avtoreferatlar>) and Information educational portal «ZiyoNET» ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)).

**Scientific Supervisor:**

**Usmanov Muhammadi Bakhriddinovich**  
Doctor of Science in Law, Professor

**Official opponents:**

**Jurayev Yuldash Achilovich**  
Doctor of Science in Law, Professor

**Safarov Djaxongir Ismoilovich**  
Doctor of Science in Law, Docent

**Uzakova Guzal Sharipovna**  
Doctor of Science in Law, Professor

**The leading organization:**

Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan

The defense of the dissertation will be held on 12<sup>th</sup> april, 2025 at 10:00 am the Session of the Scientific Council No. DSc.07/03.06.2023.Yu.22.04 at Tashkent State University of Law (Address: 100047, Sayilgokh street, 35. Tashkent city. Phone: (998971) 233-66-36; Fax: (998971) 233-37-48; e-mail:info@tsul.uz).

The doctoral dissertation is available at the Information Resource Center of Tashkent State University of Law (registered under No. .), (Address 100047, Amir Temur Street, 13. Tashkent city. Phone:(998971) 233-66-36).

The abstract of the dissertation is distributed on 28<sup>th</sup> march, 2025.

(Registry protocol No. on 28<sup>th</sup> march, 2025).

**S.S.Gulyamov**

Chairman of the Scientific Council for awarding scientific degrees, Doctor of Science in Law, Professor

**Sh.N.Rakhmonov**

Secretary of the Scientific Council for awarding scientific degrees, Candidate of Science in Law, dotsent

**D.N.Makhkamov**

Chairman of the Scientific Seminar under the Scientific Council for awarding scientific

## **INTRODUCTION (abstract of DSc thesis)**

**The actuality and relevance of the dissertation theme.** The Earth is an exceptionally unique natural resource, and ecological, social, economic, and demographic conditions, as well as, to some extent, political stability, largely depend on its state. Globally, 2 billion hectares (14.9%) of agricultural land have become unsuitable<sup>1</sup>. Additionally, according to UN data, nearly 6 million hectares of land are subjected to desertification annually, with over 40% of arable land falling out of use and becoming entirely unsuitable for agriculture<sup>2</sup>. This situation threatens food production, endangers biodiversity, and exacerbates the climate crisis. In this regard, developing legislation on land use and protection, as well as the legal regulation of social relations arising in this area, are among the most pressing issues.

